

Namangan Muhandislik-Qurilish Instituti iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
iqtisodiyot kafedrası **“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”** fanidan (1-IQT 2024,2-IQT
2024, 3-BXA 2024, 4-BXA 2024) guruhlar uchun yakuniy nazorat savollar

TO’PLAMI

1. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining asosiy maqsadi nima?
2. Iqtisodiy ta'limotlarning tarixi qaysi davrlarga bo'linadi?
3. Iqtisodiy ta'limotlar tarixida muhim maktablar qanday shakllangan?
4. Iqtisodiy fikr rivojlanishining eng dastlabki bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?
5. Qadimgi Yunoniston iqtisodiy fikriga Aristotelning ta'siri qanday edi?
6. Qadimgi Rimda yer egaligi muammolari qanday hal qilingan?
7. Qadimgi davr iqtisodiy fikrlarining zamonaviy iqtisodiyotga ta'siri qanday baholanadi?
8. Feodalizm davrida iqtisodiy fikrning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat edi?
9. O'rta asr cherkovining iqtisodiyotga ta'siri qanday bo'lgan?
10. Savdo-sotiq o'rta asr iqtisodiy fikriga qanday ta'sir qilgan?
11. O'rta asrlar iqtisodiy ta'limotlarida odil narx tushunchasi qanday talqin qilingan?
12. Merkantilizm davrida asosiy iqtisodiy g'oya nima edi?
13. Merkantilistlar qanday iqtisodiy siyosatni tavsiya qilgan?
14. Tomas Mann merkantilizm haqida qanday fikrlar bildirgan?
15. Merkantilizmning rivojlanishi uchun qaysi omillar sabab bo'lgan?
16. Merkantilizm bilan bog'liq iqtisodiy tushunchalarga misol keltiring.
17. Fiziokratlar maktabining asoschisi kim edi?
18. Quesnayning "Iqtisodiy jadval" asarining mazmuni nima?
19. Fiziokratlar "tabiiy tartib" tushunchasini qanday izohlagan?
20. Fiziokratlarning agrar iqtisodiyotga bo'lgan e'tibori qanday edi?
21. Fiziokratlar va merkantilistlar o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
22. Klassik iqtisodiyot asoschisi kim?
23. Adam Smitning "Xalqlar boyligi" asarining mazmuni qanday?
24. Klassik iqtisodiyot qanday prinsiplarni ilgari surgan?
25. Dovud Rikardoning iqtisodiyotga qo'shgan hissasi nimada?
26. Klassik iqtisodiyotda bozor mexanizmi qanday tushuntirilgan?
27. Karl Marksning iqtisodiy nazariyalari qanday asosga ega?
28. Marksizmda qo'shimcha qiymat nazariyasi qanday izohlanadi?
29. Karl Marks "Kapital" asarida nimalarni yoritgan?
30. F. Engels va Marks iqtisodiy fikrlari qanday o'xshashliklarga ega?
31. Neoklassik iqtisodiy maktabning asosiy vakillari kimlar?
32. Alfred Marshallning iqtisodiyotga qo'shgan hissasi nimada?
33. Cheklangan resurslar nazariyasi qanday tushuntiriladi?
34. Neoklassik maktab "narx nazariyasi"ni qanday izohlaydi?
35. Neoklassik iqtisodiyot klassik iqtisodiy fikrlardan qanday farq qiladi?
36. J. M. Keynes qanday iqtisodiy nazariyani ilgari surgan?
37. Keynesning "Umumiy nazariya" asari nima haqida?
38. Keyneschilikning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
39. Keynesning davlat aralashuviga bo'lgan munosabati qanday edi?
40. Keyneschilik zamonaviy iqtisodiy siyosatda qanday qo'llanilmoqda?
41. Institutsionalizm nima va uning asosiy tamoyillari qanday?
42. T. Veblenning iqtisodiy ta'limotlari haqida gapirib bering.
43. Institutsionalizm va klassik iqtisodiyot o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat?
44. Yangi institutsionalizm qanday rivojlangan?
45. Institutsionalizm iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qiladi?

46. Monetarizm maktabining asosiy vakillari kimlar?
47. Milton Fridmanning pul nazariyasi nimaga asoslangan?
48. Monetarizm va Keyneschilik o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
49. Pulning miqdoriy nazariyasi qanday izohlanadi?
50. Monetarizm zamonaviy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatgan?
51. Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan iqtisodiy nazariyalar haqida nimalarni bilasiz?
52. Globalizatsiya zamonaviy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
53. Iqtisodiy ta'limotlar siyosiy tizimlar bilan qanday bog'liq?
54. Sotsializm iqtisodiyoti qanday asoslangan?
55. Kapitalizm va sotsializm iqtisodiy tamoyillari qanday farq qiladi?
56. Aralash iqtisodiyot tushunchasi qanday izohlanadi?
57. Demokratik iqtisodiy tizimning xususiyatlari qanday?
58. O'zbekistonda iqtisodiy ta'limotlar tarixi qanday rivojlangan?
59. Amir Temur davridagi iqtisodiy boshqaruv tizimi qanday edi?
60. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston iqtisodiyotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
61. Davlatning iqtisodiyotdagi roli qanday talqin qilinadi?
62. Erkin bozor va davlat aralashuvi haqidagi ta'limotlar qanday farqlanadi?
63. Inqiroz davridagi iqtisodiy siyosat qanday bo'ladi?
64. Iqtisodiy rivojlanish tushunchasi qanday talqin qilinadi?
65. Iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
66. Iqtisodiy rivojlanish bo'yicha klassik ta'limotlar qanday?
67. Bozor iqtisodiyoti qanday ishlaydi?
68. Bozor mexanizmining asosiy elementlari nimalar?
69. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" nazariyasi nima?
70. Bozor iqtisodiyoti va aralash iqtisodiyotning farqlari qanday?
71. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy shartlari nimalar?
72. Buyuk depressiya davrida iqtisodiy ta'limotlar qanday o'zgarishlarga uchragan?
73. Iqtisodiy inqirozlar tahlili qaysi iqtisodchilar tomonidan olib borilgan?
74. Zamonaviy iqtisodiy inqirozlarning sabablari nimalarda?
75. Inqirozdan chiqish bo'yicha turli iqtisodiy maktablar qanday yo'nalishlarni tavsiya qiladi?
76. Erkin savdo tarafdorlari qaysi iqtisodiy maktablarga mansub?
77. Proteksionizm iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
78. Malthusning aholi va resurslar nazariyasi haqida gapiring.
79. Ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy ta'limotlarda qanday izohlangan?
80. Ishlab chiqarish omillari nazariyasi haqida gapiring.
81. Klassik iqtisodiy maktab ishlab chiqarishni qanday talqin qilgan?
82. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarining asosiy tamoyillari qanday?
83. Minimal ish haqi tushunchasi iqtisodiy ta'limotlarda qanday tushuntiriladi?
84. Klassik iqtisodiy ta'limotlarda mehnat nazariyasi qanday izohlangan?
85. Marksning mehnat qiymati nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
86. Adam Smit falsafiy nuqtai nazardan iqtisodiyotga qanday yondashgan?
87. Marksizm iqtisodiy-falsafiy qarashlarida qanday asosiy g'oyalar mavjud?
88. Malthusning aholi nazariyasiga zamonaviy munosabat qanday?
89. Adam Smitning "Axloqiy hislar nazariyasi" haqida gapiring.
90. Dastlabki iqtisodiy g'oyalar qachon va qayerda paydo bo'la boshladi?
91. Sharq quldorligining antik dunyo mamlakatlaridagi quldorlikdan asosiy farqlari nimadan iborat?
92. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar
93. Konfutsiy, konfutsiylik, daosizm g'oyalari; tabiiy huquq nazariyasi, iqtisodiyotni odat bo'yicha boshqarish tamoyili.
94. Qadimgi Osiyo va antik dunyoda qo'llaniladigan xo'jalik turi. Nega quldorlik tuzumi tabiiy deb baholangan?
95. Pul va sudxo'rlikka salbiy munosabatning sababi.
96. Qadimgi Rimdagi g'oyalarning asosiy xususiyatlari.

97. Quldorlar jamiyati yemirilishining bosh sabablari.
98. Feodal yer egaligi davri qachon boshlangan va uning rivojlanish bosqichlari qaysi?
99. Bu davrda bosh iqtisodiy g`oya nimadan iborat bo`lgan?
100. Islom dinida qanday iqtisodiy g`oyalar qo`llab-quvvatlangan va qaysilari inkor etiladi, nega? Ribo' nima?
101. Islom aqidalari bo`yicha savdo foydasining eng yuqori foizi qancha?
102. Ibn Xoldunning bosh iqtisodiy asari qaysi va u qachon yozilgan? Asardagi asosiy iqtisodiy g`oyalarni ta'riflab bering.
103. G`arbiy Yevropada feodalizm davridagi iqtisodiy g`oyalarning asosiy yo`nalishlarini aytib bering
104. "Buyuk ipak yo`li" ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar ravnaq topishida o`rni nimalardan iborat?
105. "Avesto"dagi iqtisodiy g`oyalarda ijtimoiy mehnat taqsimotining qaysi jihatlariga ko`proq e'tibor berilgan?
106. "Avesto" asarida qashshoqlikni yo`qotish borasida qanday tadbirlar asos qilib olingan.
107. "Alpomish" dostonidagi ijtimoiy nizoda islom ta'limotidagi qanday mezon sabab bo`lgan?
108. Xalq maqollaridagi iqtisodiy fikrlarni bayon eting.
109. Islom ta'limotidagi iqtisodiy g`oyalarni qanday guruhlarga taqsimlash mumkin.
110. Amir Temur davlatining ilmiy qonun qoidalari qaysi asarda keltirilgan?
111. Amir Temur davridagi davlatni boshqarish tartibi qanday bo`lgan?
112. Amir Temur davridagi soliq tizimi va maoshni belgilashning xususiyatlarini so`zlab bering, Ulug`bek davridagi islohotlar qaysi sohani barqarorlashtirishga qaratilgan?
113. Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy g`oyalarning mohiyatini gapirib bering,
114. Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asarida qanday iqtisodiy g`oyalar bayon etilgan?
115. Zahiriddin Muhammad Boburning iqtisodiy g`oyalari qaysi asarlarda bayon etilgan?
116. "Akbnoma"da qanday iqtisodiy g`oyalar ilgari surilgan?
117. "Fulusi-adliya" deganda nima tushuniladi va u qaysi davrga tegishli?
118. A.Navoiy boylikni to`plashning qanday yo`llari haqida gapirgan?
119. Merkantilizm ta'limotining mazmuni va uning bosqichlari, umumiylik va farqlari nimadan iborat?
120. Merkantilizm bo`yicha boylikning asosi nima?
121. Merkantilizm ta'limotining taniqli namoyandalari kimlar?
122. Merkantilizm ta'limotining tarixiy ahamiyati va taqdiri.
123. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining shart-sharoitlari. Bu maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat?
124. V.Pettining iqtisodiy qarashlari, uning uslubi.
125. Qiymat, ish haqi, pul, renta to`g`risidagi g`oyalar.
126. V.Pettining qarashlaridagi cheklanganlik.
127. P.Buagilber nima uchun qishloq xo`jaligini qo`llab-quvvatladi?
128. Fransiya iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qanday islohotlar taklif etildi?
129. Nima uchun P.Buagilber pulga qarshi edi?
130. F.Kenye hayoti va ijodining o`ziga xos tomonlarini ko`rsatib bering. U qaysi sinf manfaatlarini himoya qiladi?
131. "Tabiiy tartib" konsepsiyasi, "sof mahsulot", "unumli" va "unumsiz" mehnat, "unumli" va "unumsiz" sinf, "qo`shimcha mahsulot" tushunchalariga xarakteristika bering.
132. F.Kenyening asosiy asari qanday nomlanadi, u qachon yozilgan va uning asosiy mazmuni nimani ko`rsatadi? Takror ishlab chiqarish jarayoni qanday sikllardan o`tadi? Jadvalni izohlab bering.
133. Fiziokratizm ta'limotining kamchiliklari nimadan iborat, buning sabablarini Siz qanday izohlaysiz?
134. Fiziokratizmning ahamiyati va tarixiy taqdiri to`g`risida nima deya olasiz?
135. Klassik iqtisodiy maktabning Angliyada vujudga kelishi qanday ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda ro`y berdi?
136. A.Smitning bosh iqtisodiy asari qachon yozib tugallandi va undagi asosiy iqtisodiy g`oyalar nima?
137. Nima uchun A.Smit manufaktura ishlab chiqarishining mafkurachisi bo`lib qoldi?
138. A.Smitning pul, qiymat, daromadlar, ish haqi, kapital va takror ishlab chiqarish to`g`risidagi ta'limotlariga qisqacha izoh bering
139. Klassik maktab va hozirgi zamon

- 140.. Prudonning qaysi asarlarini bilasiz va u bu asarlarda qanday nazariyalarni ilgari surgan?
- 141.Prudon o`z ta'limotida qanday iqtisodiy muammolarga e'tibor bergan?
- 142.Prudon davlat tuzumining qanday shaklini ko`rsatib berdi, shuni tushuntirib bering.
- 143.Prudonning kapitalizmni isloh qilish loyihasining mohiyati nimadan iborat? Unga izoh bering.
- 144.K.Rodbertus qaysi nazariy maktabning vakili?
- 145.K.Rodbertusning qiymatning mehnat nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
- 146.XIX asrning o`rtalarida Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlarini aytib bering.
- 147.F.Listning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
- 148.F.List iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanida qaysi yo`nalishga asos soldi?
- 149.F.Listning asosiy iqtisodiy asari qanday nomlanadi va unda ko`tarilgan bosh mavzu nimalardan iborat?
- 150.XIX asrning 70-yillarida shakllangan qaysi nazariy maktablarni bilasiz?
- 151.XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotlarga xos xususiyatlar nimadan iborat?
- 152.Marjinalizmning iqtisodiyot fanida tutgan o`rni haqida aytib bering.
- 153.Institutsionalizm paydo bo`lishining shart-sharoitlari.
- 154.N.D.Kondratyevning siklik rivojlanishi konsepsiya nima?
- 155.Institutsionalizmning evolutsiyasi davridagi olimlar va ularning g`oyalari.
- 156.Neoklassik sintezning mohiyati.
- 157.P.Samuelsonning "Ekonomiks" asaridagi asosiy g`oyalar.
- 158."Ekonomiks" asarida qaysi olimlarning fikrlari tanqid qilinadi?
- 159.Iqtisodiyot bo`yicha Nobel mukofotlari qachondan beri topshiriladi? Bir necha mashhur laureatlarga xarakteristika bering.
160. Majinal qiymat tushunchasi nima?
161. Marjinalizmning klassik iqtisodiy nazariyalardan asosiy farqi nimada?
162. Leon Valras va Karl Mengerning marjinalizmga qo`shgan hissalari qanday?
163. Avstriya maktabi. Subyektiv - psixologik yo`nalish
164. U.Jevons va L.Valrasning marjinalistik g`oyalari
165. Alfred Marshallning iqtisodiy ta'limoti
166. J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti
167. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiyasi
168. Frantsiya klassik maktabi- F Buagilber nazariyalari.
169. Iqtisodiyotga matematik usullarning kullanilishi (XIX asr)
170. A. Smitning iqtisodiy goyalari.
171. IX-XI asrlarda Urta Osiyodagi iqtisodiy karashlar.
172. D. Rikardonning(1772-1823) iqtisodiy ta'limoti.
173. Nomukammal bozor ta'limotlari.
174. Kembrij maktabi. A.Marshalning talab va taklif nazariyalari.
175. V. Petti (1623-1687) Angliya klassik maktabiining asoschisi.
176. Amir Temur davridagi iqtisodiy siyosat.
177. Kadimgi Xindistondagi iqtisodiy goyalar.
178. Temuriylar davridagi iqtisodiy goyalar.
179. XIV asrdagi arab mamlakatlaridagi iqtisodiy goyalari.
180. Lozanna maktabi.
181. Jahon moliyaviy inqirozining sababi va uning O`zbekistonga ta`siri.
182. Prudon va Rodbertusning iqtisodiy goyalari.
183. Nega quldorlik tuzumi tabiiy deb baholangan?
184. Qadimgi Osiyo va antik dunyoda qo`llaniladigan xo`jalik turi.
185. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganish zarurligi va uning ahamiyati nimadan iborat?
186. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining asosiy vazifalari nima?
187. «Avesto»dagi yerga bog`liq munosabatlar g`oyasining mustaqil yurtimizda o`tkazilayotgan agrar islohotlar bilan bog`liq jihatini siz qanday ta`riflaysiz?
188. «Avesto»dagi mehnat taqsimoti to`g`risidagi g`oyalar mazmunini ochib bering.
189. «Avesto»da tabiat qanday e`zozlanadi?

190. «Qur'oni karim»da inson ehtiyoji va uni qondirish vositalari haqida.
191. «Qur'oni Karim»da mehnatning har ikki olamdagi ahamiyati talqini.
192. «Mehnat ham ibodatdir» degan kalomning tavsifi.
193. «Qur'oni karim»da mulk va mulkiy munosabatlar tavsifi.
194. Xususiy mulkning ijtimoiy vazifasi «Qur'oni karim»da qanday izohlanadi?
195. «Qur'oni karim»da mahr masalasi. Mahr nima?
196. «Qur'oni karim»da ijtimoiy himoya masalalari.
197. Zakot, uning mohiyati, zarurligi va ahamiyati
198. «Qur'oni karim»da rahbarlikda halollik haqida.
199. Hadislarda bozor munosabatlaridagi halolliklarga qanday e'tibor berilgan?
200. «Temur tuzuklari» asarining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.
201. Amir Temurning aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish siyosati.
202. Amir Temur iqtisodiy qarashlarining hozirgi vaqtda O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohangligini qanday izohlaysiz?
203. Amir Temurning soliq tizimi va uning ijtimoiy adolat siyosatidagi o'rnini.
204. Nima uchun Sohibqiron soliq va to'lovlarni naqd pul bilan to'lashda imtiyozlar joriy qilgan?
205. Mirzo Ulug'bek pul islohotlarini nima uchun o'tkazdi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimada edi?
206. Alisher Navoiyning iqtisodiy dahosini qanday izohlaysiz?
207. Alisher Navoiyning savdo va tijorat ishlariga qanday baho berasiz?
208. Alisher Navoiy qanday soliq siyosati tizimini taklif etdi?
209. «Bobumoma» asaridagi iqtisodiy g'oyalar nimalardan iborat?
210. Bobumning «Zakot to'g'risidagi kitobi»da qanday iqtisodiy qarashlar ilgari surilgan?

VII. BAHOLASH MEZONI

Talabning fan bo'yicha yakuniy nazoratni o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilish quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

Har bir talabaga ja'mi 5 ta (5 ta nazariy) topshiriq beriladi va ularning har biri maksimal 10 ball bilan baholanadi, ya'ni talaba yakuniy nazoratda maksimal 50 ballni to'plashi mumkin bo'ladi. Bunda talaba har bir topshiriqni bajarish foiziga mos ravishda quyidagicha ball oladi:

90-100% - 10 ball, 80-89% - 9 ball, 70-79% - 8 ball, 60-69% - 7 ball, 50-59% - 6 ball, 40-49% - 5 ball, 30-39% - 4 ball, 20-29% - 3 ball, 10-19% - 2 ball, 5-9% - 1 ball, 0-4% - 0 ball.

Topshiriqlarni bajarish foizlari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

Nazariy topshiriq uchun

%	TALABLAR
90-100 (10 ball)	Nazariy topshiriqga to'liq va batafsil javob berilgan; barcha termin so'zlar to'g'ri va to'la yozilgan; topshiriq mazmuni, tasdiqlar va tushunchalarning xossalari to'la keltirilgan; javoblar matni orfografik va grammatik xatolarsiz yozilgan bo'lsa.
80-89 (9 ball)	Nazariy topshiriqga to'liq va batafsil javob berilgan; barcha termin so'zlar to'g'ri va to'la yozilgan; topshiriq mazmuni kamroq va tushunchalarning xossalari to'la keltirilgan; javoblar matni orfografik va grammatik xatolarsiz yozilgan bo'lsa.
70-79 (8 ball)	Nazariy topshiriqga to'liq va batafsil javob berilgan; barcha termin so'zlar to'g'ri va to'la yozilgan; topshiriq mazmuni kamroq va tushunchalarning sayozroq keltirilgan; javoblar matni orfografik va grammatik xatolarsiz yozilgan bo'lsa.
60-69 (7 ball)	Nazariy topshiriqga to'liq va batafsil javob berilgan; barcha so'zlar to'g'ri va to'la yozilgan; topshiriq mazmuni to'liqroq aks ettirilmagan, javoblar matni orfografik va grammatik xatolarsiz yozilgan bo'lsa.
50-59 (6 ball)	Nazariy topshiriqning javobida ayrim tushunchalar keltirilgan barcha so'zlar to'g'ri va to'la yozilgan; topshiriq mazmuni to'liqroq aks ettirilmagan, tushunchalar to'la keltirilmagan; javoblar matni orfografik va grammatik xatolarsiz yozilgan; nazariy savollar to'liqroq to'ldirilmagan; yozuvda orfografik, grammatik xatolar mavjud bo'lsa.
40-49 (5 ball)	Nazariy topshiriqning javobida ayrim tushunchalar keltirilgan barcha so'zlar to'g'ri va to'la yozilgan; topshiriq mazmuni to'liqroq aks ettirilmagan, tushunchalar to'la keltirilmagan; javoblar matni orfografik va grammatik xatolarsiz yozilgan; nazariy savollar to'liqroq to'ldirilmagan;
30-39 (4 ball)	Berilgan nazariy topshiriqning javobida ko'p xatolar keltirilgan; keltirilgan mazmuni to'la emas va ularda xatoliklar mavjud; matnni bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlikka e'tibor berilmagan va orfografik, grammatik xatolar mavjud bo'lsa.
20-29 (3 ball)	Berilgan nazariy topshiriqning javobida ko'p xatolar keltirilgan; keltirilgan mazmuni to'la emas va ularda xatoliklar mavjud; matnni bayon qilishda tushunarsiz; ketma-ketlikka e'tibor berilmagan va orfografik, grammatik xatolar mavjud bo'lsa.
10-19 (2 ball)	Berilgan nazariy topshiriqning javobida ayrim tushunchalar ham keltirilmagan; keltirilgan savol mazmuni mavjud emas va ularda xatoliklar mavjud.
5-9 (1 ball)	Faqat javobni yozilgan yoki mavzuga aloqador to'g'ri jumlar yozilmagan bo'lsa.
0-4 (0 ball)	Topshiriqqa umuman javob berilmagan yoki mavzuga aloqador bo'lmagan ma'lumotlar yozilgan bo'lsa.

Fakultet dekani:

B.J.Maxmudov

Kafedra mudiri:

O.A.Aripov

Ekspert guruhi a'zolari:

U.Fayzullayev

M.Xo'jaxanov

G.Jamalova

Fan o'qituvchisi:

D.S.Fayzullayev